

# Buxorodan Zaaminga parvoz qilamiz

2023 12 Sentabr

***Uzbekistan Airways Buxorodan Zominga va undan haftasiga 5 marta muntazam reyslar ishga tushirilgani haqida xabar berishdan mamnun!***

2023-yil 15-sentabrdan boshlab Uzbekistan Airways Toshkent va Buxorodan Zominga va ortga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirishni boshlaydi. Ta'kidlash joizki, respublikamiz ichidagi yangi yo'nalishning ochilishi O'zbekiston Respublikasining uchta shahri – Toshkent, Samarqand va Buxorodan bir vaqtning o'zida havo qatnovining bog'lovchi bo'g'ini bo'lgan Zominda mintaqaviy aeroport qurilishi tufayli amalga oshirildi.

Toshkent va Buxorodan Zominga qatnovlarni haftasiga 5 marta, dushanba, seshanba, chorshanba, juma va yakshanba kunlari quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

- Toshkentdan jo'nab ketish 09:30, Zominga yetib kelish 10:05
- Zomindan jo'nab ketish 10:35, Buxoroga yetib kelish 12:05
- Buxorodan jo'nab ketish 13:05, Zominga kelish 14:35
- Zomindan jo'nab ketish 15:05, Toshkentga yetib kelish 15:40

Zomin – Buxoro yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi 170 000 so'mdan, Toshkent – Zomin yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi esa 105 000 so'mdan boshlanadi. Aviachiptalarni [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) rasmiy saytida, UzAirways ilovasi orqali yoki Uzbekistan Airways Sales filialida sotib olish mumkin.